



REY BREDBERI VA HOJIAKBAR SHAYXOV ASARLARINING ADABIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Ko'chimov Ulug'bek Qo'chqarovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Alfraganus universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ulugbekkuchimov1975@gmail.com

<http://orcid.org/0000-0001-7356-4809>

ANNOTATSIYA

Maqola jahon adabiyotshunosligida ruhiyat muammosini tadqiq etish, qahramon his-tuyg'ularining butun murakkabligi, ziddiyati, ko'zga ko'rinmas, sirli jihatlarini badiiy talqin etish kabi dolzarb muammolarga bag'ishlangan. XX asrda psixanalitik ta'limotning asosini tashkil etuvchi ong osti qatlamlarining chigal va cheksiz kengliklari, adabiy-poetik xususiyatlari tadqiq etildi. Fantastik adabiyot taraqqiyotning ilk bosqichida ilmiy va noilmiy fantastikaga ajratilgan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy, falsafiy, maishiy fantastika, zamonaviy adabiyotshunoslikda turborealizm, kiberpank, alternativ fantastika kabi turlari yuzaga keldi. Shuningdek, jahon adabiyotida psixologizm hodisasini ilmiy-nazariy muammo sifatida tadqiq qilish borasida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyot meharida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish, ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarni tasvirlash yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati hamda ijodiy niyati sanaladi. Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Har bir ijodkor iste'dod sohibi sifatida ruhiyat manzaralarini faqat o'ziga xos, boshqalarga o'xshamagan tarzda inkshof etadi, aynan ruhiy olam turfaligi, ta'sirlanish yo'sinining ayrichaligi badiiy adabiyotda o'ziga xos ijod namunalari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Yozuvchi ijodining yetakchi xususiyatlari, o'ziga xos badiiy olami, uslubi, ruhiyat talqinidagi mahorati bevosita u yaratgan badiiy obrazlarga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Badiiy obrazda yozuvchining ruhiy olami, go'zallikni anglashi, olam va odam munosabati asosida yuzaga kelgan qalb tug'yoni o'z ifodasini topadi.

KALIT SO'ZLAR

Fantastika, turborealizm, kiberpank, alternativ fantastika, psixologizm, ruhiy olam, muallif ijodiy niyati, obrazlar ruhiyati, qahramonlar o'y-kechinmalari, dialoglar, monologlar.

ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РЭЯ БРЭДБЕРИ И ХАДЖИАКБАРА ШАЙХОВА

Кучимов Улугбек Кучкарович

Доктор философии по филологическим наукам, доцент

Университет Альфрангуса

Ташкент, Узбекистан

ulugbekkuchimov1975@gmail.com

<http://orcid.org/0000-0001-7356-4809>

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена рассмотрению актуальной для мирового литературоведения проблемы изучения психологизма, т.е. художественной интерпретации эмоционально-психологических состояний литературного героя во всей их сложности, противоречивости, загадочности и недоступности для зрительного восприятия. В

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Фэнтези, турбореализм, кибепанк, альтернативная фантастика, психологизм, духовный мир, творческий

XX веке психоаналитические теории заложили основу для изучения художественно-поэтических особенностей представления запутанных, бесконечных глубин подсознания в литературе.

На первом этапе развития фантастическая литература подразделялась на научную и ненаучную фантастику, затем в современном литературоведении были выделены такие направления, как социальная, философская, бытовая фантастика, турбореализм, киберпанк, альтернативная фантастика.

Рассматривая изучение феномена психологизма в мировой литературе как научно-теоретическую проблему, следует отметить, что при этом в центре художественной литературы находится образ человека, а средством раскрытия его духовного мира, представления бесконечных трансформаций, происходящих в нем, выступают художественная фантазия и творческий замысел писателя. Художественная литература имеет ни с чем не сравнимый потенциал в раскрытии правды о человеке, его природе, душе и психологии. При этом каждый художник, как обладатель уникального таланта, передает психологию героя в свойственной только ему, совершенно неповторимой манере; в свою очередь, его умение передать многообразие духовного мира, найти особые средства воздействия на читателя обуславливают появление уникальных художественных произведений. В силу этого можно утверждать, что ведущие черты творчества писателя, его неповторимый художественный мир, стиль, мастерство интерпретации человеческой психологии проявляются именно в создаваемых им художественных образах. В художественном образе находит свое выражение духовный мир писателя, свойственное ему понимание красоты, эмоциональные состояния, возникшие на основе переживания взаимоотношений мира и человека.

замысел автора,
психология персонажей,
мысли и переживания
героев, диалоги, монологи.

LITERARY AND AESTHETIC FEATURES OF THE WORKS OF RAY BRADBURY AND KHAJIAKBAR SHAYKHOV

Kuchimov Ulugbek Kuchkarovich

Doctor of philosophy in philology, Associate Professor

Alfraganus University

Tashkent, Uzbekistan

ulugbekkuchimov1975@gmail.com

<http://orcid.org/0000-0001-7356-4809>

ABSTRACT

This article discusses the actual problems of researching the problem of psyche in world literature, artistic interpretation of all the complexity, contradictions, invisible and mysterious sides of the hero's emotions. In the XX century, the confusing and endless expanses of subconscious layers, which form the basis of psychoanalytic teaching, and literary and poetic features were studied. At the first stage of development, fantastic literature was divided into scientific and non-scientific fiction, then social, philosophical, everyday fiction, turбореализм, cyberpunk, alternative fiction appeared in modern literary studies.

Also, considering the study of the phenomenon of psychologism in world literature as a scientific-theoretical problem, it should be noted that at the same time in the centre of fiction is the image of man, revealing his spiritual world, describing the unrestrained evolutions occurring in him. In his inner world is considered the artistic imagination and creative intent of the writer. The role of fiction is incomparable in revealing the truth about man, his nature, heart and psyche. Each creator, as a talented person, develops the landscapes of the psyche only in his own unique way. The leading features of the writer's creativity, his unique artistic world, style, mastery of interpretation of the psyche are manifested directly in relation to the artistic images he creates. In the artistic image finds its expression the spiritual world of the writer, understanding of beauty, emotional state arising on the basis of the relationship between the world and man.

KEY WORDS

Fantasy, turбореализм, cyberpunk, alternative fiction, psychologism, spiritual world, author's creative intent, characters' psyche, characters' thoughts, dialogues, monologues.

KIRISH

Rey Bredberining romanlaridan tashqari qisqa hajmli hikoyalarda ham o'tkir dramatik, ruhiy holatlar, asosan harakatlarga emas, balki qahramonlarning o'y-kechinmalari, dialoglar, monologlar asosiga qurilgan.

Mana shu jihatlari bilan R.Bredberi H.Shayxov uchun ustoz, asarlari esa andoza va ibrat maktabi bo'ldi. Uning qahramonlari jahon adabiyotida mavjud abadiy mavzular atrofida aylansa-da, uning asarlarida ham badiiy psixologizm aspektlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Muhimi, turli kontinentlarda yashovchi bu ikki fantast yozuvchini asarlari g'oyasini bitta nuqta birlashtirib turadi. Bu – “dunyoda tinchlikni saqlash” masalasi. Ularning asarlaridagi har bitta obraz – u insonmi, robotmi kim, qanday obrazligidan qat'i nazar harakati tinchlikni saqlashga qaratilgan.

Xorijiy fantastlar orasidan mamlakatimizda Rey Bredberi eng taniqlilaridan biri bo'lib, bu ma'noda faqat janr klassiklari ingliz G. Uells va fransuz Jyul Verndan ortda qoladi. U intervyularidan birida Jyul Vernni o'z adabiy amakisi deb ataydi. Amerika adibi Bredberi yevropalik janr ustalarining ma'naviy tarbiyaga asoslangan an'alarini qabul qiladi. H.Shayxov esa o'z navbatida R.Bredberidan ma'naviy oziq oldi, badiiy psixologizm sirlarini o'rgandi.

Ayni paytda bu ikki muallif milliy fantastika “maktabini” birinchi navbatda Edgar Podan meros sifatida qabul qilib, uni boyitib borishdi.

Rey Bredberi betakror syujetlarni o'ylab topishga usta, biroq uning ijodi mundarijasida syujetsiz, metafora qabilidagi va ichida yashirin mazmunli yoki umuman har qanday ma'nodan xoli hikoyalari ham bor. Hatto chiroyli, pishiq “bichilgan” asarlarida ham Rey Bredberi hikoyani eng qiziq nuqtasida uzib qo'yib, tafsilotlarini tashlab ketishi, harakatlarni ehtiroslar junbushga kelgan paytda kechiktirishi mumkin. Voqealar rivojini muallif “kadr” ortidan turib boshqaradi. Vaziyat rivoji qaysi tarafga yo'l olishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi, ammo Rey Bredberi hech qachon kitobxonga xulosa chiqarishga yordamlashmaydi, undamaydi. *“Men kitobxonning ehtiroslarini junbushga keltirdim, hayajonga soldim, chuqur o'yga toldirdim, kitob ustida uzoq o'ylab, xayol surib, keyin qanday xulosa chiqarsa, o'zi biladi”* (Bredberi R., 1947, 19), – deb yozgan qaydlari ham fikrimiz isbotidir.

U bergan intervyular hamda Rey Bredberining essellarida muallif fikrlar emas, balki his-tuyg'ularni targ'ib etadi, harakat emas, ehtiroslar; hodisalar emas, holatni bayon etadi.

“...Hojiakbar Shayxovning “Tutash olamlar”, “Ikki jahon ovorasi” romanlari kitobxonni o'ziga maftun etadi. Bu asarlar bugungi adabiyotimiz uchun yangilik... Ularning yangiligi shundaki, bu asarlar o'zbek nasridagi birinchi mistik-fantastik romanlardir. Ular eng munozarali va eng qiziqarli muammolardan biriga bag'ishlangan. Insonning tabiati, hayoti qanaqa, inson vafot etishi bilan uning hayoti tugaydimi yohud u boshqa shakllarda, boshqa tarzda qayta tug'ilib, yashashda davom etadimi? Umuman, moddiy dunyo bilan ruhiyat dunyosi o'rtasidagi aloqalar qanaqa?”

Mana, mustaqillik sharofati bilan bunday cheklashlar bekor bo'ldi va birinchi ilmiy-fantastik va mistik romanlar qo'limizga yetib keldi” (Sharafiddinov O., 2000, 125), - O.Sharafiddinov bildirgan fikrlarini H.Shayxov ijodining asos mundarijasi sifatida qayd etish mumkin. Yozuvchining aynan mana shu dilogiyasida uning ma'naviy qarashlari yaqqol ko'rinadi. U ma'naviy qadriyatlar tarafdori.

R.Bredberi ma'naviy qadriyatlar, fantaziya va erkin ijod vakili sifatida insonning ichki dunyosini, qarashlarini, tasavvurlarini eng oliy qadriyat deb biladi. Insonlarning boshqalar dardiga hamdard bo'lish, jonkuyarlik hissini yozuvchi birinchi o'ringa qo'yadi. Insonni ruhan poklash, qalban ulg'ayishga chorlash, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilish, vijdonini uyg'otish leytmotivi asosida qahramonlarning ichki kechinmalarini badiiy psixologizm aspektlaridan foydalangan holda tasvirlaydi.

R.Bredberi hikoyalarining aksariyatida bosh qahramon – yosh Duglas Spolding – muallifning “ikkinchi o'zi”. Duglas – uning ikkinchi ismi, Spolding – otasining yana bir familiyasi.

Yoshligida u o'zining sayoz hikoyalarini yig'ib, hovlisining o'rtasida gulxan yoqadi. Bu to'g'rida R.Bredberining o'zi ma'yuslik bilan “ikki million so'zni yoqib yubordim”, degan edi. Keyinroq bu hodisa kitoblarni yoqishga bag'ishlangan romani “Farengy bo'yicha 451 daraja”ning yaratilishi uchun zamin bo'ldi.

ASOSIY QISM

Rey Bredberining aksariyat ishqibozlari, hamkasblari, amerikalik fantast yozuvchilar orasida “Mehribon ertakchi” sifatida nom qozongan.

U o'z navbatida dastavval san'at kishilariga (hatto ko'proq darajada uning ishqibozlariga) boshqalarga nisbatan ko'proq hamdardlik bildiradi. Shu bilan birga Rey Bredberi o'z asarlari sahifalaridan turib, “dushmanlar” – tasavvurdan mahrum bo'lgan qahri qattiq odamlar, meshchanlar, amaldorlar, siyosatchilar – oddiy odamlarning normal hayot kechirishiga yo'l qo'ymaydiganlarga qarshi qat'iy kurash e'lon qiladi.

H. Shayxov ham fantast yozuvchi sifatida ijodini hikoyalardan boshlagan. Biroq uning dastlabki hikoyalari “o'sish kasalligi”ni boshdan kechirgan hikoyalardir (Ibrohimova R., 2011, 70). Uning asarlarida ilmiy terminlar ustuvorlik qilib, badiiylik, badiiy psixologizm, fikr, mantiq izchilligi oqsaydi, sun'iylik kabi yetishmovchiliklar ko'zga tashlanadi. Ijodini fantastik hikoyalar yozishdan boshlagan H.Shayxov uchun bu vaqt oralig'i katta janrdagi fantastik asarlarni egallashida ko'prik vazifasini o'tadi.

Rey Bredberi ijodida hikoyalar hajm jihatidan eng katta qismni tashkil etadi. Muallifning yirik janrga mansub asarlari, qissa hamda romanlari aynan shu shaklda oliy mahorat cho'qqilariga erishdi. Yozuvchining e'tirofiga ko'ra, u hayoti davomida 400 dan ortiq hikoya yaratdi. Ulardan ba'zilar nisbatan yirikroq asarlar uchun asos, eskiz vazifasini o'tadi.

R.Bredberining qator asarlari ekranlashtirilgan. 1985 yildan to 1992 yilgacha “Rey Bredberi teatri”da teleseriallar suratga olinib, ekranga chiqarildi. Ushbu serialda uning ko'plab hikoyalari ekran yuzini ko'rdi, ya'ni jami 65 ta kichik film suratga olindi. Rey Bredberining o'zi prodyuser hamda ssenariy mualliflaridan biri bo'ldi, s'yemkalar jarayonida va aktyor tanlashda qatnashdi. Shuningdek, muallif har bir seriya boshida paydo bo'lib, o'zini tanishtirar va ba'zan hikoya boshidagi kichik sahnalarda ishtirok etardi. Bu jarayon uning botiniy olami, ma'naviyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu bilan birga Bredberi o'z mamlakatining tub mohiyatini anglashga hamda professional mahorat cho'qqilariga erishishga ko'maklashgan, ma'naviy dunyoqarashining takomillashuvida, ijtimoiy tenglik, erkinlik borasida unga ibrat maktabi bo'lgan ustozlari ham bor. Bulardan, Uolt Uitmen xalqni buyuk millat sifatida birlashtirib, ularni “amerikancha

demokratiya ideallariga bo'lgan ishonch" g'oyasi sari olg'a yetaklaydi. Xudoga bo'lgan e'tiqod hamda har kim o'z mehnati bilan muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga ishonch kabi chizgilar ustuvorlik qiladi.

"Mark Tven, hatto, undan ham oldinroq qanchadan qancha amerikalik yozuvchilar ana shu provensial Amerikaga murojaat qilganlar va uning ko'zga tashlanib turgan kontrastlari va ma'lum fojialarga ko'z yumagan holda o'z kitobxonlariga go'zal va betakror Amerikani ochib berganlar" (Bredberi R., 1953, 18).

Amerika go'zalligini Rey Bredberi nihoyatda fusunkor tasvirlaydi: *"Bahorning ajib bir kuni edi. Olmaning gullagan shohida tinib-tinchimas mamenovka sayrardi. Shamol yashil shoxlarni siypalaganda daraxtning oq gulbarglari parqu bulut kabi pastga sochilar, atrofni esa ajib bir is qoplab olar edi. Shaharchada kimdir pianino chalar; musiqa goh kuchayib, goh tinib, uning mayin allalovchi sadolari havoda suzib borardi"* (Bredberi R., 1953, 169).

Rey Bredberining eng sara va she'riy ohangdagi asarlaridan biri – "Momiq gullardan sharob" (1957-yil). O'ta tiniq, har daqiqada mo'jiza ro'y berishi kutiladigan asarda bolalik va yetuklik chegarasidagi amerikalik o'smir hayotining bir yoz mavsumi, uning uyi va u yashaydigan shaharcha voqealari tasvirlangan. Xuddi shu kabi kichik Uokigan shaharchasida Rey Bredberi dunyoga keldi. Rey Duglas Bredberi oilasi kambag'al bo'lib, u ko'p kitob mutolaa qilar (oliy ma'lumot olish uchun mablag'i yetmas edi), hikoya yozishni ham juda erta boshladi. Ana shu shart-sharoitlar ta'sirida uning o'ziga xos tili, uslubi, ma'naviy dunyoqarashi shakllandi.

Bredberining fantastik va realistik g'oyalari insonga bo'lgan yuksak ishonch, madaniyat va yuksak ma'naviyat bilan yo'g'rilgan. Yozuvchi tilining romantik ko'rinishi ham shu tufayli bo'lib, ertak va real voqelik o'rtasidagi chegaralarni olib tashlab, ular o'rtasida ko'priklar bino qiladi.

Biroq Rey Bredberi – yadro davri yozuvchisi. Davr boshlarida u qalam tebratish sohasida muayyan tajribaga ega bo'ldi, bir qancha asarlari jurnallarda chop etildi, milliy-adabiy merosni mustaqil o'rganishga kirishdi. Rey Bredberi fantastikada o'zi uchun yagona yo'lni tanlab ulgurgan edi: "Hayot va o'lim birligi, o'lim kabi sirlilik kasb etgan hayot mo'jizasi. Ikki ming yil davomida buyuk faylasuflar ular sirini ocha olmadilar. Biz hamon shu muammolar ustida bosh qotiramiz. Mavzu yetakchiligicha qolib, uning izohi qisman o'zgardi, xolos".

Vaqt – tuganmas va doimiy ravishda kamayib boruvchi kategoriya; manguilik va har bir alohida mavjudot mavjudligining tirik realligi. Rey Bredberining mashhur fantastik syuitasi "Mars xronikalari"ni tashkil qilgan, ammo ular tarkibidan joy olmagan Mars to'g'risidagi hikoyalarida ko'p marotaba halok bo'lgan sivilizatsiya manzarasi paydo bo'laveradi.

Rey Bredberining ham "Muz va olov" fantastik hikoyasida syujet ekspozitsiyasi, peyzaj va boshqa vositalardan qahramonlar ruhiyatini ochib berishda keng foydalanilgan.

Hikoya qahramoni *"During the night, Sim was born. He lay wailing upon the cold cave stones. His blood beat through him a thousand pulses each minute. He grew, steadily"* (Bredberi R., 1953, 273). *"Sim tunda tug'ildi. U g'orning muzdek toshlari ustida g'ingshib yotardi. Jajjigina tanachasida qon zarb bilan bir daqiqada ming marta aylanardi. U odamlar ko'z o'ngida ulg'aya borardi.* (Bredberi R., 2007, 178) Bu o'rinda hikoya ekspozitsiyasi sifatida muallifning asar qahramoni tug'ilishining tarixi bilan bog'liq tasvirini qabul qilish

mumkin.

Simning ota-bobolari million yillar ilgari olimlarning xatosi tufayli, kema halokatiga uchrab, shu “qarg‘ish tekkan sayyora”ga kelib qolishgan. Sim bu zaminning besh minginchi avlodi hisoblanadi. Sim tavallud topgan joy quyoshning yonginasida joylashgan birinchi sayyora edi. Bu sayyorada kechasi chidab bo‘lmas darajada sovuq, kunduzi kuydiradigan darajada issiq bo‘ladi. Shu tufayli odamlar g‘orda umr kechirishadi.

Bu tasvir-tushuntirishlar muallifning Simga yuklatilgan vazifani bajarishi, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishi, hikoya qahramoni xarakteriga xos chizgilarni psixologik jihatdan asoslash bilan bog‘liq.

Yozuvchi e‘tiborni Simning tunda tug‘ilgani, muzdek tosh ustida g‘ingshib yotganiga qaratadi. Sabab, *tun* – qahramon taqdirining bir bo‘lagi. U yashab shakllanayotgan muhit – qora, qo‘rqinchli *tun* misol. Besh ming yil mobaynida, to Sim ularni bu ahvoldan qutqarguniga qadar ularning hayoti mazmundan xoli edi. Ular istagan yoki belgilangan vaqtda emas, balki tongda va shomda yeyish mumkin bo‘lgan ildizlarni yig‘ib-to‘plab olishardi. Pirovardida umrlari faqat ovqat yeyish bilan o‘tadi. Vaholanki, umr ularga faqat sakkiz kungina berilgan. Mana shu qisqa vaqt ichida ular sevib, oila qurib, nasl qoldirishga ham ulgurishlari kerak. Ammo quyosh yaqinida joylashgan birinchi sayyora odamlari bu vazifaning uddasidan o‘zlari mustaqil chiqq olmaydilar. Shu bois muallif bu vazifani hikoya qahramoni Simga yuklaydi.

Bu o‘rinda Sim M.Gorkiyning Dankosi, H.Shayxovning Nurbegi kabi obrazlari bilan tenglasha oladi. Sim – fantastik obraz, u oddiy insonlardan farq qiladi. Uning yuragi bir daqiqada besh yuzdan ming martagacha uradi. Yozuvchi bu dalilni keltirishidan maqsad, Simning umri sakkiz kunligini mantiqan asoslash, pirovardida kitobxonni bunga ishontrish bilan bog‘liq. Biroq Simning real shaxslardan farqli tomonlari bilan birga uyg‘un chizgilari ham ko‘p. Sim yuzaga kelgan vaziyatning yechimini ilmida deb biladi. Buning uchun u g‘orda yashayotgan olimlarni topadi, ulardan ilm o‘rganadi.

Sim maqsadiga yetishish uchun ko‘pgina to‘siqlarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda yozuvchi fantastik unsurlar (Simning zehni, xotirasi o‘zga sayyoraliklarga xos favqulodda samoviy kuchga egaligi, botinan bilish, nasliy xotiraning mavjudligi)dan keng foydalanadi. Yozuvchining ijodiy maqsadi – fantastik unsur va usullar orqali Sim imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Sim qarg‘ish tekkan sayyora ahlini qutqaradi. Ozodlik kemasini topadi. Fazo kemasidagi muhit insonlarga uzoq umr, mo‘tadil yurak urishi, ularning turmush tarzlarini yaxshilash sharoitiga ega. Sim sevgilisi bilan kemada qolishi va uzoq, baxtli umr kechirishi mumkin. Sevgilisi Layt unga aynan shu taklifni kiritadi. Ammo Sim qabiladoshlarisiz hayotni tasavvur qila olmaydi. Sim ularni kemaga olib kelish uchun ularning yoniga qaytadi. Bunda fantastik xislatga ega bo‘lgan “olov til”, ya’ni nur taratuvchi to‘pdan foydalanadi. Sim “to‘p”dan chiqayotgan nur bo‘ylab harakat qilib (bo‘lmasa sovuqda muzlab qolardi, ta’kid bizniki – U.K.), ozodlik kemasidan chiqib, qabiladoshlarini kemaga boshlab keladi.

Yozuvchi Rey Bredberining fantastik qahramonlari xalqni og‘ir ahvoldan olib chiquvchi xaloskorlar obrazidir. Ular o‘z manfaatlaridan xalq manfaatini ustun qo‘yib, kurashga bel bog‘laydilar. Sim – shunday qahramonlarning biri. U qabiladoshlarini, tug‘ishganlarini bu “qarg‘ish tekkan sayyora”dan olib chiqishga muvaffaq bo‘ladi.

Sim o‘jar, o‘z fikridan qaytmas, maqsadi yo‘lida kurashuvchi, e‘tiqodli fantastik

obrazdir. Bunda yozuvchi Simdan ibrat olishga da'vat etmoqda. U Simdek izlanuvchan, tafakkuri keng obraz kitobxonga fikriy quvvat, ma'naviy kuch baxsh etishiga ishonadi.

Rey Bredberi Simni tipiklashtirib, xaloskor, qutqaruvchi, ozodlikka olib chiquvchi fantastik obraz sifatida tasvirlaydi. Asar kichik hajmli fantastik hikoya bo'lsa ham, unda ulkan g'oya yotadi, hikoya murakkab muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Hikoyada muallif nutqi asarning sistem yaxlitligini ta'minlagan.

Yozuvchi hikoyada badiiy psixologizmning ichki monolog shakli orqali ham qahramon psixologiyasini ochib boradi: *"War!" The thought stood in Sim's brain. It shocked and beat at him. These men were running to fight, to kill, over there in those small black cliffs where other people lived. But why? Wasn't life short enough without fighting, killing?* (Bredberi R., 1947, 283) *"Urush!" – aks-sado berdi Simning miyasi. Yangi fikr uni larzaga soldi. Bular qora qoya ahlini o'ldirmoqqa chog'langandilar. Nega axir? Shundoq ham umr qisqa bo'lsa, urushib bir-birlarini o'ldirib nima qilishadi"* (Bredberi R., 2011, 173).

Simning miyasiga kelgan bu fikr uning nuqtai nazari, hayotdagi pozitsiyasini belgilab beradi. U umuman urushga qarshi. U urushdan ma'no yo'q deb biladi, chunki umr qisqa. Qabiladoshlarining fikri esa Simning qarashlariga to'g'ri kelmaydi. Ular umrlarini uch kunga uzaytirish uchun Qora qoya ahliga qarshi urush ochsa arziydi, degan fikrdalar. Garchand urushda yengilsalar, niyatlariga yetolmasliklari ham mumkin, lekin shunga qaramasdan ular urush tarafdori. Bu o'rinda asar qahramoni Simning da'vati orqali uning pozitsiyasi anglashilsa, qabiladoshlarining qarashlari orqali yuz berayotgan voqealar baholanadi.

Asar qahramonlaridan biri Kayonning maqsadi – urush orqali bo'lsa ham, umrni uch kunga uzaytirishga erishish. Bundan maqsad uch kun ortiq umr ko'rish ma'nosida emas, albatta. Balki inson harakatda bo'lishi, hayotning har bir kuni uchun kurashib yashamog'i lozim, degan fikrni ilgari surishdir.

Muallif bu o'rinda o'z pozitsiyasini sir tutadi. U kim tomonda?! Sim yoki Kayon, ilg'ash qiyin. Aslida muallif masalaning yechimini kitobxon hukmiga havola etadi. Voqealar rivoji davomida kitobxonning bir qarorga kelishi kutiladi, mazmun to'la hayot kechirish maqsadida umrning bir kuni uchun ham kurashib, umri harakatda kechgani ma'qulmi yoki ortiqcha urinishlarsiz o'limini kutib, umr o'tkazgan ma'qulmi?!

Voqealar rivojidan Sim keyinchalik fikrini o'zgartirgani ma'lum bo'ladi. Kayon nutqidan Sim uning yo'lini tanlagani anglashiladi. Qabila Qora qoya ahliga urush ochadi. Urushda qabila yengiladi. Qabila yengilganiga qaramasdan Qora qoya ahli Simni tan oladi. Chunki u yakkama-yakka kurashda (Qora qoya polvonini – U.K.) halol yengadi. Qora qoya ahli Sim va u bilan birga qolishni istagan sevgilisi Laytni o'z g'orlariga qabul qilishadi. Sim va Laytni qabul qilishlariga sabab Qora qoya polvoni Nixoyning nutqidan anglashiladi: *"If you die, I will give your mate shelter and she will live as she pleases, because she is the wife of a good man"* (Bredberi R., 1953, 175). *"Agar g'olib bo'lsam, – deydi u, – Laytni o'z g'orimga olib kiraman, chunki u sendek sharaflı jangchining xotini"* (Bredberi R., 2011, 176).

Bu o'rinda muallif asar syujeti, peyzaj, portretidan tashqari asar qahramonlarining nutqi orqali ham hikoyada ko'tarilayotgan masala – xalq o'z ijtimoiy ahvolini yaxshilashi uchun harakat qilishi, harakatda yashashi lozim, degan fikrni ochishga muvaffaq bo'lgan. Faqat bunga bosqinchilik emas, halol yo'l bilan erishish lozimligi asar konsepsiyasini tashkil etgan. Rey Bredberi urush olovini yoquvchilarni qoralaydi. U Sim fantastik obrazi orqali

ijtimoiy va shaxslararo urushlarga qarshi ekanligini bildiradi. “Muz va olov” hikoyasidan ham muallifning asl maqsadi, asosiy konsepsiyasi inson qancha umr ko‘rishidan qat’i nazar urush olovini yoqmasdan yashashi joizligidir.

Asar voqeasi fazodagi qaysidir bir sayyorada tasvirlanadi. Aslida mazkur hikoyada yuz bergan vaziyat mamlakatning turli burchagida sodir bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Mazkur hikoya 1946 yilda yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

R.Bredberi urush olovini yoquvchilarni qoralaydi. Aslida urush tarafdorlari urush natijasida yangi-yangi boyliklar orttirishadi, yangi hududlarga egalik qilish istagida bo‘lishadi. Urushlarda ular farzandi, aka-ukasi, jigaridan ayrilishi mumkin. Ular moddiy zarar ko‘rmaydilar, ma‘naviy zarar ko‘zlariga ko‘rinmaydi. Ularning maqsadlari – boylik orttirish, shu maqsadda hamisha urush tarafdadirlar.

XX asrda yer yuzidagi mamlakatlarning ko‘pgina nuqtalarida urushlar bo‘lib o‘tdi, u odamlarning boshiga sanoqsiz musibatlar keltirdi. Yozuvchi “Muz va olov” hikoyasida fantastik obrazlar yordamida bo‘lsin ijtimoiy va shaxslararo urushlarga qarshi ekanligini bildiradi va o‘zining bu g‘oyasini boshqa fantastik asarlarida ham rivojlantiradi.

“XX asr fojialarini anglash qiyin emas, har bir millat o‘z boshidan kechirganlarini xotirlasa bo‘ldi. Kim Vatandan judo, kim ota-ona, farzand, aka-uka, qarindosh-urug‘, kim erk, ozodlikdan...” (G‘aniyev I., 1947, 8.) fikri R.Bredberi qarashlari bilan hamohang.

Ingliz fantasti R.Bredberining “Muz va olov” hikoyasi bilan o‘zbek fantasti H.Shayxovning “Olovdan chiqqan odam” asari o‘rtasida mushtarak chizgilarni ko‘rish mumkin. Bu ikki muallifning turli yillarda yozilgan asarlari nihoyasidagi xulosa birlashtirib turadi.

H.Shayxovning “Olovdan chiqqan odam” hikoyasining qahramoni Nurbek ham Rey Bredberining qahramonlari qabi ijtimoiy ahvolni yaxshilashga halol yo‘l bilan erishish lozim degan fikrda. Uning fikricha: *“Niyat – muqaddas, yeru ko‘k muqaddas, shundan bizga tekkan ulush –muqaddas...”* (Shayxov X., 1998, 89). Nurbek ham Sim kabi urush, kurash, qasos yo‘li bilan emas, yuzaga kelgan muammoni tinchlik va murosa bilan bartaraf etish tarafdoridir. Bu fikrga o‘z-o‘zidan yetib kelmadi, albatta. Unga qabila boshlig‘i oqsoqol – xalqdan chiqqan rahnamolar yo‘l ko‘rsatdi. Bu ikki asarda niyat boshqa-boshqa, ya‘ni Rey Bredberi qahramonlari o‘z g‘orini tark etib sharoiti yaxshi Qora qoya g‘origa bosqinchilik yo‘li bilan egalik qilmoqchi, Hojiakbar Shayxovning qahramoni Nurbek esa o‘zidagi fantastik belgilaridan foydalanib, qabilasini mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod etish maqsadida dushmani qirib tashlaydi. Ammo bu ikki asar qahramoni ham “Muz va olov”dagi Nixoy va “Olovdan chiqqan odam”dagi Nurbekda qabila oqsoqoli kabi insonlar yordamida yovuzlik payini qirqishda urushdan xoli yo‘llarni topishga intilish anglashiladi.

R.Bredberi va H.Shayxovning insonni o‘ylantiruvchi, ogohlikka da‘vat etuvchi, odamzod o‘zligini anglashiga undovchi xulosalari asarning badiiy qimmatini oshishiga xizmat qilgan. Yozuvchi faqat asar qahramonlari nutqidan emas, balki nutqning barcha ko‘rinishlaridan: personaj nutqi, ichki nutq, monolog, dialog, muallif nutqidan atroflicha foydalangan. Bu xulosa H.Shayxov asarlari uchun ham birdek taalluqlidir.

Rey Bredberining “Muz va olov” hikoyasi qahramoni Sim tarbiyasini ota-onasi opasi Dakka topshirib, vafot etishadi. Bu sahna onaning farzandlariga vasiyat tarzidagi

dialogi orqali berilgan. Kuni bitganini tushunib yetgan Simning ota-onasi umrining so'nggi damlarida ham farzandlarini o'ylashadi, ularning kelajakdagi o'zaro munosabatlari borasida qayg'urishadi. Dialoglarda ota-onaning so'nggi safarga ketish oldidan qalblarida kechgan tug'yonlari berilgan. Jon chiqish arafasida farzardining tili chiqib, birinchi so'zni aytishi ularga nechog'lik quvonch bag'ishlagani, Simning ota-onasi umrining oxirgi daqiqalarida ham hayotdan ko'ngli so'nmagani, ko'tarinki ruhiyati dialoglarda aks etgan.

Bu jarayon qanday kechgani, Sim qanday tarbiya olgani, shakllanishi bilan bog'liq o'rinlar, atrofidagilarga bo'lgan munosabati, tabiatiga xos chizgilar opasi Dak, dushmani Kayon va olimlar bilan uning o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya bobidagi nutq matni: *"Enemies are made over things like stolen foods; gifts of long grasses make friends. Enemies come, too, from opinions and thoughts. In five seconds you've made an enemy for life. Life's so short enemies must be made quickly"* (Bredberi R., 1953, 284). *"Ovqatingni o'g'irlagan – sening dushmaning, mevali shox in'om etgan odam do'sting bo'ladi... o'tmishdan qolgan bir ahmoqona irim bor. Go'yoki o'ldirilgan kishining hayotiy quvvati qotilga o'tar emish. Shuning evaziga u bir kun ortiq umr ko'rarmish. Tushundingmi? Kimki bu irimga ishonar ekan, hayoti xavf ostida deyaver!"* (Bredberi R., 2011, 175) – deyishiga ko'ra, Dak ukasi Simga kim do'st, kim dushman ekanligini anglatmoqda.

Mazkur hikoyada insonlarni turish-turmushini belgilovchi asosiy omillardan biri, bu – yegulik. Ular hamisha yegulik topish va uni iste'mol qilish bilan band. Chunki ularga ajratilgan umr sakkiz kun va shu kun oralig'ida Sim ko'p ovqat iste'mol qilib, kuch-quvvatga to'lishi kerak. Ammo Kayon uning ovqatini tortib olish payida. Shu bois opasi uning qulog'iga shivirlab, *"Enemies are made over things like stolen foods; gifts of long grasses make friends"*. *"Ovqatingni o'g'irlagan dushmaning, mevali shox in'om etgan odam do'sting bo'ladi"*, – deb uqtiradi. Simni hushyorlikka da'vat etadi. Dakning Simga qaratilgan nutqidan uning Simga bo'lgan mehr-muruvvati, ukasining hayoti uchun xavotirli holati satrlar ortidan sizib turibdi. Shu bilan bir qatorda Simning do'st bilan dushmani ajrata ololmasligi, g'o'rliigi, yoshiga ham ishora bor. Ayni shu Dakning nutqida Kayon xarakteriga xos chizgilar ham o'z aksini topgan. Bir paytning o'zida aynan Simning opasi Dakning nutqida Kayonga xos chizgilar ham tortilgan. Kayon tabiatiga xos jangovarlik, zo'ravonlik, xudbinlik birgina Simning opasi Dakning unga: *"ovqatingni o'g'irlagan dushmaning"* iborasida jo bo'lgan.

Asar qahramonining psixologiyasini berishda asar qahramonlari nutqi bilan birga muallif nutqi ham muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda muallif nutqlaridan faqat asar qahramoni Sim va unga tegishli insonlar opasi Dak, dushmani Kayon, sevgilisi Laytga xos chizgilargina emas, balki voqea qayerda sodir bo'layotgani, vaziyat qanday kechayotgani, asar qahramonlari o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq tafsilotlar ham asar qahramonlari tabiatiga xos chizgilarni to'ldirishda xizmat qilgan. Muallif nutqidan o'rin olgan tafsilotlarga qaraganda *"He understood love, marriage, customs, anger, pity, rage, selfishness, shadings and subtleties, realities and reflections. Like a bird newly cracking its way from a shell, he was almost a unit, complete, all-knowing"* (Bredberi R., 1947, 179). *"Simning onasi barcha, shirador giyohni og'zida chaynab, Simning ham og'ziga tutardi. Muallifning mazkur nutqida onaning bolasiga bo'lgan muhabbati aks etgan. Ona xuddi qush misol, giyohlarni chaynab, so'ng bolasining og'ziga tutyapti. Sim dunyoni, atrofni, jarayonni onasining muhabbati, mehrli qiyofasi orqali tuyadi. Muhabbat, nikoh, fe'l-atvor, g'azab, rahm-shafqat, xudbinlik, nazokat bilan bog'liq*

tushunchalarni idrok etadi. U tuxumni yorib chiqqan jo 'jaga o'xshab borliqni onasi timsolida ko'radi'" (Bredberi R., 2011, 179).

Onaning bolasiga bo'lgan munosabati – muhabbatini muallif Simning ota-onasi o'rtasidagi dialog orqali yanada mustahkamlaydi: *"Let me kill him!" shouted the father, breathing harshly, sobbingly. "What has he to live for?" "No, no!" insisted the mother, and her body, frail and old as it was, stretched across the huge body of the father, tearing at his weapon. "He must live! There may be a future for him! He may live longer than us, and be young!"* (Bredberi R., 1947, 289).

"O'ldirishimga qo'yib ber uni! – harsillab nafas olgancha, harqiroq tovushda dedi otasi.

– Yashab nima qiladi?

– Aslo, aslo! – qayta-qayta o'zinikini ma'qulladi ona...

– Yashayversin! Balki u bizdan yaxshiroq yashar! Ko'proq umr ko'rib, yosh bo'lib qolar!" (Bredberi R., 2011, 168).

Dialogdan ma'lum bo'lishicha, Simning otasi uni o'ldirmoqchi, chunki yashash sharoitining og'irligi, umrning qisqaligi, bu vaziyatdan qutulish imkonining yo'qligidir. Otaning qarg'ish tekkan sayyora tabiatidan noroziligi, hayotdan to'ygani, ota ruhiyatining drammatizmi mazkur dialogda, bir jumlada o'z aksini topgan, uning psixologik holati o'g'lini o'ldirish darajasiga ham yetgan. Garchand, ota ham bolasiga mehribon, lekin tashqi ta'sirga, ob'yektiv borliqqa qarshi kurasha olmaydi. Uning xarakterida o'jizlik, notovonlik, qo'pollik belgilarini ko'ramiz. U alamdanda "qah-qah" otib kuladi. O'z o'limini bilib, kutib turgan insonning ruhiy holatini muallif dialoglar yordamida ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Simning onasida esa ishonch so'nmagan, u kelajakdan najot kutadi. Shu bois bolasining yashashini istaydi. U Simning otasiga ham hurmat bilan qaraydi. Uni "Tentak!" deb koyiydi. Muallif aynan, "tentak" so'zidan foydalanishidan maqsad, unda ona erini farzandiga nisbatan ehtiyotsizligidan noroziligi hamda turmush o'rtog'iga bo'lgan qalbidagi iliq munosabatini ifodalashdir.

Muallif bir oila – qabila fojiasini hikoyaga asos qilib olar ekan, o'zining ijtimoiy qarashlarini ifodalaydi. Shu bois ham Sim onasining orzusi muallif orzusiga mushtarakdir. Muallif nutqiga ko'ra Simning: *"...from a young age, feelings of good and evil begin to form in the brain. Sim, as birds or birds learn by means of an inner instinct, fills his mind with all knowledge"* (Bredberi R., 1947, 275) *"...Miyasida yoshligidan ezgulik va yovuzlik haqidagi tuyg'ular shakllana boshlaydi. Qushlar yoki parrandalar ichki instinkt vositasida o'rganganidek Sim ham ongini barcha bilimlar bilan to'ldirib bormoqda"* (Bredberi R., 2011, 274). U Kayon qiyofasida g'oyaviy raqibini anglagani ham muallif nutqidan ma'lum bo'ladi.

Simning tabiatiga xos belgilarni to'ldirishda muallif monologlardan ham keng foydalanadi: *"I'm the five-thousandth in a long line of futile sons? What can I do to save myself from dying eight days from now? Is there escape?"* (Bredberi R., 1947, 276) *"Men hech nimaga yaroqsiz o'g'illarning besh minginchisiman. Xo'sh sakkiz kundan keyin o'limga mahkum bo'lmaslik uchun nima qilish kerak? Bundan qutulishning iloji bormikin?"* (Bredberi R., 2011, 169). Mazkur monologdan Simning yuzaga kelgan muammoni bartaraf etishda qabila qariyalari qarorini kutmasdan o'zi tashabbus ko'rsatishga qodirligi, najot yo'lini

topishga intilgani anglashiladi.

Yozuvchi nutqida Sim va Kayon o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyat orqali nodon, o'zining ham o'zgalarning ham qadr-qimmatini bilmaydigan Kayon obrazining ma'naviy dunyosi, ruhiy olamini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Yozuvchi nutqida berilgan tabiat kuchlari tasviri esa kishilar o'rtasidagi g'oyaviy kurash psixologiyasini ochishga xizmat qilgan. Hikoyada *"inson tabiat yetkazadigan ozor oldida ojizdir"* degan muallif g'oyasi o'z isbotini topmaydi. Uning qahramonlari muallif istagiga qarshi hayotga umid bilan boqadi, ular har qanday muammoning yechimini ilmda deb biladi. Muallif nutqi asar qahramonlari tabiatiga xos bo'lgan shunga o'xshash nozik tomonlarni ilg'ashda kitobxonga yo'l ko'rsatadi. Muallif nutqlaridan birida asar qahramoni Simning olimlar g'orini topishi quyidagicha tasvirlangan: *"Finally, Sim found what he was looking for. Inside the mountain, a group of men were caring for rocks... Every eight days there was an entirely new set of Scientists working on anyone problem"* (Bredberi R., 1947, 289). *"Nihoyat, Sim izlaganini topdi. Tog'ning ichkarisida, tog' jinslari orasida bir guruh erkaklar kuymalanib yurardi..., qariyalar murakkab masalalarni yechar, yoshlar o'qib-o'rganar, savollar berishardi. Har sakkiz kunda hamma guruhlar butunlay yangilanardi"* (Bredberi R., 2011, 179). Mazkur parchada muallif ma'lum ma'noda kelajak manzarasini bermoqda, hamma biron ishning boshini tutgan, yoshlar ilm o'rganmoqda, qariyalar murakkab muammolarning yechimini biladi. Pirovardida, muallif Simdan, uning atrofidagi insonparvar odamlardan, masalaning yechimini topishda qariyalarni ibrat qilib ko'rsatmoqda. Asardagi dialoglar ham asar qahramonlari psixologiyasini ochishda, holatini berishda muhim vositalardan biridir. Sim Layt bilan tanishar ekan ilk uchrashuvlaridagi psixologik holatni muallif ularning dialoglarida ifodalagan. *"Qiz ishonch, ixlos, sevinch bilan o'zining ismini Simga xursandchilik bilan aytadi. Yigit esa hayajondan talmovsirab javob beradi"* (Bredberi R., 2011, 173). Muallif dialoglardan bosh qahramonlar – Sim va uning sevgilisi Laytning psixologik holatini berishda foydalanish bilan bir sirada, asar qahramonlari o'rtasidagi ziddiyatli o'rinlarni berishda ham keng foydalanadi. Bunga Simning ota-onasi, Kayon bilan Sim o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni ham dialoglar yordamida ochadi. Ular o'rtasidagi konflikt qabilalar o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatishga xizmat qilgan.

Asarga asos qilib olingan voqea garchand ijobiy yakun topgan bo'lsa-da, bu yakunga yetish uchun asar qahramonlari boshidan kechgan jarayonni berishda asosan muallif nutqning turli ko'rinishlaridan atroflicha foydalanadi. Shu ma'noda olimlarning kashfiyotlariga bo'lgan asar qahramonlarining munosabati Dak bilan Simning dialogida yoritilgan. *"Where are the Scientists?" Dark looked away from him. "I wouldn't tell you if I knew. They'd kill you, experimenting! I don't want you joining them! Live your life, don't cut it in half trying to reach that silly metal thing on the mountain". "I'll find out where they are from someone else, then! " "No, one'll tell you! They hate the Scientists. You'll have to find them on your own. And then what? Will you save us? Yes, save us, little boy!" Her face was sullen; already half her life was gone. "We can't just sit and talk and eat," he protested. "And nothing else." He leapt up. "Go find them!" she retorted acidly. "They'll help you forget. Yes, yes." She spat it out. "Forget your life's over in just a few more days!"* (Bredberi R., 1947, 286).

– O'sha olimlaringiz qayoqda o'zi?

– Bilganimda ham aytmas edim. Tajribalari bilan qo'shmozor bo'lgurlar. Sening ham umringga zomin bo'lishadi. Ularning huzuriga borishingni istamayman. Tog'dagi ahmoqona

matohni deb o'lib ketmoqchimisan? Xudo bergan umringni yashayvermaysanmi?

– *Boshqalardan surishtirib bilib olaman, baribir!*

– *Kim ham aytardi, senga! Hamma olimlarni yomon ko'radi, O'zing izlashingga to'g'ri keladi ularni. Xo'sh, topding ham deylik! Keyinchi? Bizni qutqarasanmi?*

– *Faqat ovqat yeb, gap sotish kerakmi? ...Umringdan bir necha daqiqa qolganini unutishga yordam berishadi!*” (Bredberi R., 2001, 176).

Yozuvchi opa va uka o'rtasidagi muloqotda qahramonlarning olimlar kashfiyotiga bo'lgan munosabatini bermoqda. Opasining fikricha, olimlarning kashfiyoti kema – “ahmoqona matoh”. Sim uchun esa bu kashfiyot – ozodlik timsoli. Opasi olimlarni “tajribalari bilan qo'shmozor bo'lsin”lar, deydi. Agar olimlar shu kemani o'ylab topmaganlarida, bizlar bu “qarg'ish tekkan sayyoraga” kelib qolmas edik, degan fikrda. Ammo Sim asar muallifining fikr va qarashlarining targ'ibotchisi o'laroq gavdalanadi.

Muallif asar g'oyasini amalga oshirish uchun Simni fantastik xislatlar bilan taqdirlaydi. U tug'ilmasdan avval ona qornida nasliy xotira quvvati yordamida ko'p bilimlarni o'rganib olgan edi. Uning miyasiga bilimlar oqib kirardi. Asar muallifining qarashi bo'yicha xalq xaloskori har tomonlama yetuk, komil va qomusiy bilim sohibi bo'lishi lozim. Sim ham shunga intilmoqda. U zulmatdagi nur, mash'al, ozodlik jarchisidir, qabiladoshlarini, tug'ishganlarini bu “qarg'ish tekkan sayyora”dan olib chiqishga bel bog'lagan qahramon. Simning olimlar bilan uchrashganda “*I want to live*” (Bredberi R., 1947, 289). “*Yashashni istayman*” (Bredberi R., 2001, 179), deb aytgan birgina jumlasida uning ruhiyati, olib borayotgan harakatlarining mohiyati aks etgan.

R.Bredberi mazkur fantastik hikoyasida ko'zlagan maqsadini amalga oshirishda epizodik obrazlardan ham keng foydalanadi. Hikoyadagi epizodik obraz baland bo'yli. Muallif asarda uning qarashlari orqali jamoani olimlar xususidagi salbiy fikrini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu kishi ham qarg'ish tekkan sayyoraga kelib qolishlarining sababini olimlardan ko'radi. Ular olib borayotgan tadqiqotlarda ma'no yo'q deb biladi. Yozuvchi olimlarga qarshi faqat mazkur baland bo'yli epizodik obrazni qarshi qo'ymasdan, unga hamfikir bo'lgan va olimlarga qarshi bo'lganlar sonini Daynk, Kayon obrazlari hisobiga oshiradi. Yozuvchi olimlarning ilmga, qabila ahlining turmush tarzini o'zgartirishga qo'shgan hissasini inkor etish orqali tasdiqlash yo'lidan borgan. Hayotda bo'lganidek, fantastik asarlarda ham ilmni, kashfiyotlarini yovuzlikka xizmat ettiruvchi olimlar ham bor, ammo bu olimlarning obrazi fantastik adabiyotda 60-yillardan keyin ommalashdi.

Mazkur hikoyada olimlarning vazifasi – nasliy xotirani tiklash, quyoshni to'sadigan niqob yasash. Bu vazifani amalga oshirish yo'lida ular turli surtmalar, tosh kiyim, qush qanotlar yasashadi, ammo ular bu vazifani bajarishda yolg'izlik qilishyapti. U bu fikrni olimlardan biri Daynkning gaplari orqali ham bir necha bor qaytaradi, shu fikrga urg'u beradi, kitobxonlarning e'tiborini shu fikrga qaratishga harakat qiladi, chunki muallif bu kabi ishlarni bajarish uchun olimlarning saflari kengayishi kerak degan g'oyani ilgari suradi. Adib olimlar obrazini asar qahramonlarini yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketishlari uchun kiritgan. Ammo u faqat fantastik asardagi muammoning yechimi uchun olimlar obrazidan foydalanmasdan, maqsadni yanada kengroq oladi. U asarida turli surtmalar, tosh kiyim, qush qanotlar yasashgan olimlar timsolida kelajakda samolyotdan tortib kosmik kemalargacha, ko'rinmas kiyim, harflarni ko'rinmas qilishi mumkin bo'lgan surtmalarni kashf etgan olimlar

kashfiyotining eskizi, fantastik muqobilini yaratdi.

Rey Bredberi “Muz va olov” fantastik asari qahramonlariga xos badiiy-psixologik xususiyatlarini ochishda nutq va uning ko‘rinishlari, portret tasviri, tush ko‘rish yoki peyzajdan foydalanish bilan bir sirada, bosh qahramon Simga xos xislat-halolligini namoyish etish uchun Simni Kayon bilan yakkama-yakka kurashda tasvirlaydi. Ma’lumki, bu usul qadimiy bo‘lishiga qaramasdan, fantastik asarlarda ham qimmatini yo‘qotmagan. Rey Bredberi ham ko‘proq Sharq xalqiga xos bo‘lgan raqiblarning – Sim va Nxoy kurashi tasvirida asar qahramoni xarakteriga xos chizgilarni ochishga muvaffaq bo‘lgan. Bu o‘rinda ayrim hollarda salbiy bo‘yoqdor so‘zlardan, o‘xshatishlardan, iboralardan, sifatlashlardan unumli foydalanadi. Jangda yengilgan Nxoyini “...ko‘zlari azobdan mo‘layib qolgan, og‘zi g‘arq pishib, yorilgan mevaday ochiq”, deb pishib ketganidan yer bilan bitta bo‘lib yoyilib yotgan mevaga o‘xshatadi. Yoki *Kayonni qarigan paytini tasvirlar ekan, Sim (Kayonni – U.K.): “shishaday xira tortgan ko‘zlarini, baliqday qurib ketgan tanasini ko‘zdan kechirdi”*. Avvallari go‘zalligi bilan Simni bir qarashda rom etgan Laytning ko‘zlarini endi “o‘rgimchak uyasiday yopishqoq kipriklar to‘sgan”. Bu sifatlash orqali yozuvchi shaxmat taxtasidagi o‘yinni eslatuvchi hayotda Laytning to‘rt qadamdan keyin nima sodir bo‘lishini bilmasligi, ya’ni ko‘zi nursiz ekanligini ifodalayapti. Yoki “*His eyes were hot emeralds in his face*” (Bredberi R., 1947. 178). “*Yigitning ko‘zlari olov zumradday yog‘dulandi*”, deb Simni ta’riflar ekan, uning g‘olibligiga ishora qiladi.

Shu tariqa yozuvchi asar qahramonlarining psixologik holatini ochishga xizmat etuvchi chizgilarni marjondek tizadi va qahramonlarning psixologik holatini, xarakteriga xos xususiyatlarni ochishga muvaffaq bo‘ladi.

“*Portret – deb yozadi I.Sultonov, – ma’lum darajada kishining ichki dunyosini in’ikos ettiradi va shu sababli syujetda bizni voqealarni tez va to‘g‘ri tushunishga tayyorlaydi*” (Sultonov I., 1980, 111).

Shu ma’noda Rey Bredberining “Muz va olov” asari qahramoni Laytning portreti fikrimizga dalil bo‘ladi: “*Layt...yosh, go‘zal edi. Ko‘zlari misoli kumush tanga, bo‘yni oqqushnikiday chiroyli, nafis. Kichikkina tanasidan quvvat olayotgan sochlari mavjlangan moviy olovni eslatardi. Oradan to‘rt kun o‘tganiga qaramay, u hamon yosh, go‘zal edi... misoli to‘lin oyday, endigina yetuklik ostonasiga qadam qo‘yganga o‘xshardi*” (Bredberi R., 2001, 188).

Laytning tabiatiga xos bo‘lgan chizgilar orqali unda Simga bo‘lgan sof muhabbatni tasdiqlovchi xususiyatlarni ko‘ramiz. Muallif Laytning ko‘zlarini kumush tangaga qiyoslashi – ko‘zlarida yolqinlanuvchi nur; bo‘ynini oqqushnikiga o‘xshatishi – qalbi pokligi; bo‘ynining uzunligi – ko‘zlangan maqsadning yuksakligi; sochlarini moviy olovga tenglashtirishi – jo‘shqinlikni aks ettiruvchi fantastik portretni yaratadi.

Bir o‘rinda muallif qizning portretini tasvirlar ekan sochlarini “*binafshasimon, zangori tusda tovlanardi*” (Bredberi R., 2001, 175), – deb qayd etadi. Muallif qizning sochlari binafshasimon rangda ekanligiga urg‘u beryapti. Fantastika tarixida yaratilgan ayollar obraziga e’tibor bersak, teritorial jihatdan ular qaysi mamlakatga qarashidan qat’i nazar, boz ustiga fantastik asar qahramonlarining millati bo‘lmaydi, sochlarining rangi binafshasimon yo zangori qilib beriladi. Ma’lum ma’noda sochlarining rangi bilan bog‘liq badiiy yuk yuklatilgan (Ibroximova R., 2011, 200).

Muallif tomonidan Laytga xos yuqorida qayd etilgan chizgilar uning tashqi go'zalligi botiniy olamiga mutanosibligini ko'rsatishga hamda asar qahramoni Sim xarakterini Layt obrazi orqali to'ldirishga xizmat qilgan.

“Muz va olov” asari qahramonlari yashayotgan sharoitning noqulayligini kitobxonga yanada chuqurroq anglatish maqsadida yozuvchi epizodik xarakterga ega bo'lgan fantastik obrazning portretini beradi: *“The outlines of the cave appeared. And a man loomed up, insane and wild and terrible. A man with a dying face. Old, withered by winds, baked like adobe in the heat. The man was crouched in a far corner of the cave, his eyes whitening to one side of his face, listening to the far wind trumpeting up above on the frozen night planet”* (Bredberi R., 1947, 273). *“Telbasifat, yovvoyi, mudhish qiyofali odam paydo bo'ldi..., juda qartayib ketgan, tanasini shamollar quritib tashlagan, ayozlar yuzlarini kuydirgan, go'yo g'ishtga aylanib ketgandi u. G'orning bir burchagida g'ujanak bo'lib yotgancha, g'ilay bo'layotgan ko'zining oqlarini yaltiratib, sovuqdan muz qoplagan tungi sayyora uzra guvillab esayotgan shamolga quloq tutardi”* (Bredberi R., 2001, 167).

Yozuvchi tasvirlagan mazkur portretdan tabiatdagi noqulay sharoit insonning tashqi qiyofasida ham noxush iz qoldirgani, uning ruhiyatiga ham ta'sir o'tkazgani, insonda tajovuzkor, hayotdan nafrat hissini shakllantirganini anglash mumkin.

Yozuvchi atrof-muhit, ekologiya, odamlarning turmush tarzini yanada bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ijobiy obrazlardan, xususan, Dak obrazidan foydalangan. Simning opasi Dak ukasini chin yurakdan ardoqlaydi, u hayotni o'z nuqtai nazaridan real baholaydi, hayotdan ortiqcha narsa kutmaydi, uni takomillashtirish maqsadida o'zi harakat ham qilmaydi. Faqat qorin qayg'usida yegulik qidirib kun kechiradi. Shu ma'noda uni yozuvchi: *“Watching Dark was like seeing a lizard forever flicking its pink tongue, forever hungry”* (Bredberi R., 1947, 283). *“Qizcha doim och, pushti rang tillari bilan hamisha ovqat izlaydigan kaltakesakni eslatardi”* (Bredberi R., 2001, 174), deb tasvirlaydi. Urush bo'layotgan joylarda ochlik, qashshoqlik hukmron, bir burda non yoki bir hovuch meva uchun qabila odamlari kun bo'yi sarson-sargardon kezadilar, umrlarini xor-zorlikda o'tkazadilar. Dak obrazi orqali butun bir qabila ahliga nisbat berilmoqda.

Yozuvchining maqsadi fantastik obrazlar portreti orqali o'limga mahkum aholining ahvoli, turmush tarzidan kitobxonni ogoh etish emas, balki masalaning yechimini topishdan iborat. Aholi hayotini yaxshilash, taqdiriga o'zi egalik qilish uchun umrning bir kuni qolgan bo'lsa ham, yaxshi hayot uchun kurashib yashash lozim degan g'oya ilgari surilgan.

R. Bredberini faqat “Muz va olov” hikoyasidagina emas, balki ijodida yetakchi maqomni egallagan, uni tashvishga solgan xalq taqdiri, insonni asrash bilan bog'liq masalalarning yechimini topishda qahramon nutqi va uning turli ko'rinishlari hamda portret, peyzajdan foydalanish bilan bir qatorda tush usulidan ham keng foydalanadi. Yozuvchi asar qahramonining tushi orqali vaziyat og'irligini, qabila ahlining ahvoli nihoyatda tangligini qayd etish maqsadida Simning tushi yordamida yana Layt portreti tasviridan foydalanadi: *“...To'satdan qizning yuzlarini taram-taram ajin bosib ketganday tuyuldi. Sochlari go'yo shamol to'zitgan qorday, hissiz ko'zlarini o'rgimchak uyasiday yopishqoq kipriklar to'sgan. Tishsiz og'zi o'raday ochilib qolgan, nozik barmoqlari kuyib, bujmayib ketgan, chiviqday jonsiz bilagiga osib qo'yilganday tuyulardi. Yigitning ko'z o'ngida uning nafisligi, tarovati so'lib, so'nib borardi. Sim dahshat bilan Laytning qo'llarini ushlab oladi va ichidan hayqirib*

kelayotgan qichqiriqni arang bosib qoladi. Uning nazarida o‘zining qo‘llari ham qartayib, taram-taram bo‘lib ketdi” (Bredberi R., 2001, 177).

Avvallari go‘zalligi bilan kitobxon qalbidan joy olgan Layt qiyofasidagi o‘zgarishlar hayotning og‘irligidan darakchidir. Sim ko‘z o‘ngida so‘lib borayotgan Laytni tushida ko‘rar ekan, o‘zi ham shu ahvolga tushib qolayotgandek bo‘ladi. Buning oldini olishda yagona yo‘l qabilasining farovon hayoti uchun, Laytga bo‘lgan sevgisi uchun kurashish ekanligini tushunib yetadi. U olimlarni tinimsiz izlaydi. Olimlardan kemani boshqarish sirlarini bilib olsam, bas, qanday bo‘lmasin qabiladoshlarimni sakkiz kun yashab, o‘lib ketadigan dahshatli maydondan olib chiqaman deb harakatga tushadi.

Sim ko‘rgan yana bir tushida qahramonlarning tushkun ruhiyati ifodalangan: *“Birds lingered upon gigantic trees that took a hundred, two hundred, five thousand days to grow. Everything remained in its place, the birds did not flicker nervously at a hint of sun, nor did the trees suck back frightenedly when a ray of sunlight poured over them. In this dream people strolled, they rarely ran, the heart rhythm of them was evenly languid, not jerking and insane. The grass remained, and did not burn away in torches. The dream people talked always of tomorrow and living and not tomorrow and dying. It all seemed so familiar that when Sim felt someone take his hand he thought it simply another part of the dream”* (Bredberi R., 1947, 287). *“Azim daraxt shoxlarida qushlar xotirjamgina o‘tirar, ular unib o‘sishi uchun yuz, ikki yuz, besh ming kun kerak bo‘lardi. Uyqudagi odamlar shoshmay, ohista yurar, kamdan kam holda chopar edilar, yuraklari telbavor, potirlab emas, balki bir tekisda urardi. Odamlar ertangi kun, o‘lim haqida emas, ertangi kun hayot tashvishlaridan gaplashardi.*

– *Ruhiy uyg‘unlik uchun shunday qilamiz aslida. Hayot adolatsiz”* (Bredberi R., 2001, 177) (qarg‘ish tekkan sayyorada – U.K.).

XULOSA

Rey Bredberi tush motivi vositasida asar qahramonlarining ruhiy holatini ochib beradi, kayfiyatini, ichki kechinmalarini yoritadi, asar voqealarini o‘zaro bog‘lab, uning shaklan va mazmunan yaxlit bir butunligini ta‘minlaydi. Simning tushlari orqali uning ruhiyatini ochilgan, shuningdek, kitobxonga o‘zga sayyora hayotini yerdagi hayot bilan qiyoslash imkonini bergan. Sim tushida ko‘rgan yerdagi hayot qarg‘ish tekkan sayyoradagidan tubdan farq qiladi. Sim sayyoradagi hayot bilan u intilayotgan yerdagi hayotni garchand tushida bo‘lsa ham, qiyoslash imkoniga ega. Yer aholisi mazmunli hayot kechiradi, yuragi bir tekisda uradi. Sayyora ahli bo‘lsa, umri belgilanganligi bois (sakkiz kun – U.K.) tahlikada yashaydi. Umrining so‘nggi kunini kutib yashashdan og‘ir qismat yo‘q.

Xulosa shuki, R.Bredberi va H.Shayxov fantastik asarlarida voqealar silsilasini qanday tasvir usullari, badiiy psixologizmning turli aspektlari yordamida tasvirlashmasin, ularning qarashlari bir nuqtada kesishadi. Ular tinchlik tarafdori sifatida tinchlikka raxna soluvchi tubanliklarni qalamga olib, jamiyat takomillashuviga yordam berishi mumkin bo‘lgan fantastik gipotezalarni ilgari surishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bradbury R. Short Stories. Dark Carnival. – 1947. – P.286. <http://www.shortstoryguide.com/ray-bradbury-short-stories/>
2. Bredberi R. Farengeyt bo‘yicha 451 daraja // Jahon adabiyoti. – T., 2007. – №7. – B.169.

3. Gʻaniyev I. Asrga tatigulik dard. –T.: Akademnashr. 2010. –B. 8.
4. Bredberi R. Muz va olov. //Jahon adabiyoti jurnali, 2001. – № 12. –B. 176.
5. Ibrohimova R. Fantastika va hayot. –T.: Muharrir, 1998. – B. 70.
6. Ibrohimova R. Voqelik va fantastika. – T.: Muharrir, 2011. – 200 b.
7. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T.: “Oʻqituvchi”, 1980.
8. Shayxov H. Olovdan chiqqan odam. –T.: Sharq, 1998. – B. 89.
9. Sharafiddinov O. Tutash olamlar, Ikki jahon ovorasi. Hojiakbarning sirli olami. Soʻzboshi. – T.: Sharq, 2000. – B. 125–126.

REFERENCES

1. Bradbury R. (1947) Short Stories. Dark Carnival. P.286 <http://www.shortstoryguide.com/ray-bradbury-short-stories/>
2. Bradbury R. Fahrenheit451 (2007) World literature. T., V-7. P.169.
3. Ganiyev I. (1947) The pain of touching the century. T.: Akademnashr 2010. P.8.
4. Bradbury R.(2001) Ice and fire. Journal of World Literature. - No. 12. P. 176.
5. Ibrahimova R. (1998) Fiction and life. T.: Muharrir. P. 70.
6. Ibrahimova R. (2011) Reality and fiction. T.: Muharrir, 200 p.
7. Sultanov I. (1980) Literary theory. T.: Teacher.
8. Shaykhov H. (1998) The man who came out of the fire. T.: Sharq, P. 89.
9. Sharafiddinov O. (2000) Connected worlds, two worlds. The mysterious world of Hojiakbar. Foreword. T.: Sharq. P.125-126.